



Ulug'bek RAMAZANOV,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti
E-mail: ramazonov@mail.ru

PhD, dotsent M.Boltayeva taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA XORIJIY TILLAR O'QITILISHINING TARIXIY ZARURATI VA SHAKLLANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonda chet tillarini o'qitish tizimini tarixiy zarurati, xorijiy tillarni o'qitishning yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq jarayonlar va uning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xorijiy tillar, maktab, oliy ta'lim muassasasi, agentlik, strategiya, davlat tili, siyosat, taraqqiyot, integratsiya.

ИСТОРИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И СТАНОВЛЕНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируется историческая необходимость системы обучения иностранным языкам в Узбекистане, процессы, связанные с налаживанием обучения иностранным языкам и его значение.

Ключевые слова: Иностранные языки, школа, высшее учебное заведение, агентство, стратегия, государственный язык, политика, развитие, интеграция.

HISTORICAL NEED AND FORMATION OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the historical need for the system of teaching foreign languages in Uzbekistan, the processes associated with the establishment of teaching foreign languages and its significance.

Key words: Foreign Languages, School, higher education institution, agency, strategy, state language, politics, development, integration.

Kirish. Sovet hukumati 1947 yilda qabul qilgan "chet tillar o'qituvchilari tayyorlash haqida"gi 3485-sonli [4.3] va "maktabda chet tillar o'qitishni yaxshilash to'g'risida" 3488-sonli qarorlari O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishning birmuncha jonlanishiga sabab bo'ldi. Chunki bu davrga qadar xorijiy (chet) til yurtimizdagi ko'plab maktablarda umuman o'qitilmagan edi. Faqat ayrim maktablardagina xorijiy til sifatida nemis tili o'qitilardi. Shu munosabat bilan bu davrga kelib Respublikada chet tillarni o'qitishni yo'lga qo'yish va mavjudlarini takomillashtirishga ijtimoiy-gumanitar fanlar jiddiy e'tibor qaratilib, yuqoridagi qarorlar qabul qilingan edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Xorijiy tillarni o'qitish zarurati insoniyat madaniyati va ijtimoiy hayotining rivojlanishiga mos ravishda shakllangan jarayondir. O'zbekiston hududida ham bu zarurat uzoq tarixiy ildizlarga ega. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan O'zbekiston qadimdan turli millatlar, dinlar va tillarning uyg'unlashuv maskani bo'lgan. Bu holat xalqaro aloqa va savdo munosabatlarini rivojlantirishda xorijiy tillarni bilishni zarur qilgan [1]. O'zbekiston hududida xorijiy tillarni o'qitishning dastlabki zaruriyati xalqaro savdo va diniy tarqalish bilan bog'liq edi. Buyuk ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasida olib borilgan iqtisodiy aloqalar ko'plab xorijiy tillarning rivojlanishiga turtki bergan [2]. Arab tili bu hududda Islom tarqalishi bilan bir qatorda ilm-fan va madaniyat tili sifatida shakllandi. Movarounnahrda ko'plab allomalar, jumladan, al-Farg'oniy, al-Beruniy va Ibn Sino asarlarini arab tilida yozib, o'z ilmiy kashfiyotlarini butun dunyoga tanitdilar [3]. Fors tili esa adabiy va diplomatik til sifatida yuksaldi. Xususan, Amir Temur davrida fors tilining rasmiy yozishmalar hamda madaniy aloqalarda keng qo'llangani xorijiy tillarni bilishning ahamiyatini yanada oshirdi [4]. Bu davrda xorijiy tillarni o'rganish o'zbek milliy madaniyatining jahon madaniyati bilan uyg'unlashuviga xizmat qildi [5]. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston gubernatorligi tashkil topishi bilan rus tili O'zbekiston hududida keng tarqala boshladi. Rus tili davlat boshqaruvi, hujjatbozlik va ta'lim tizimining muhim elementi sifatida joriy etildi. Rus tili o'sha davrda xalqaro ilmiy-adabiy aloqalarga kirishishning yagona vositasi sifatida tan olingan. Shu sababli, mahalliy xalq vakillari orasida bu tilni o'rganishga qiziqish ortdi. Sovet davrida

esa rus tili butunittifoq muloqot vositasi sifatida majburiy tilda o'qitildi. Shuningdek, bu davrda ingliz, fransuz va nemis tillari ham ta'lim tizimida o'qitila boshladi. Mazkur holat xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishiga olib keldi. Ammo bu jarayon milliy tillarning rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. 1991-yilda mustaqillikka erishgan O'zbekiston xorijiy tillarni o'qitish siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqdi. Xalqaro maydonda mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish uchun xorijiy tillarni bilishning ahamiyati ortdi. Bu borada eng muhim bosqichlardan biri sifatida birinchi Prezident Islom Karimovning 2012-yilda chet tillarni o'qitish bo'yicha farmon qabul qilishi bo'ldi. Ushbu farmon xorijiy tillarni o'rganish uchun qulay sharoitlar yaratdi va ta'lim tizimini isloh qildi. Bugungi kunda O'zbekistonda ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, xitoy, nemis va fransuz tillari ham davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xorijiy tillarni bilish xalqaro tadbirlarda ishtirok etish, global iqtisodiy jarayonlarga qo'shilish va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi [6].

Mustaqillik yillarida xorijiy tillarni o'qitish O'zbekistonda milliy taraqqiyot va globallashtirishning muhim elementi sifatida qaralmoqda. 2012-yilda qabul qilingan Prezident farmoni xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlarni belgiladi. Ushbu hujjat asosida xorijiy tillar maktablardan boshlab o'qitila boshlandi, yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash dasturlari amalga oshirildi va zamonaviy o'quv materiallari yaratildi. Hozirgi davrda ingliz tili xalqaro biznes va ilmiy muloqot tili sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'rgatishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish jarayoni boshlangani ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirmoqda. Movarounnahr hududidagi qadimgi yozma yodgorliklar xorijiy tillar bilan madaniy aloqalar o'rnatishning muhimligini tasdiqlaydi. Qadimgi so'g'd, baxtriya va xorazm tillari mintaqada keng tarqalgan bo'lib, ular xalqaro savdo va diniy faoliyatda muhim vosita bo'lgan. Ayniqsa, so'g'd yozuvi orqali turli diniy matnlar tarjima qilingan va bu jarayon til o'rganishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirgan. Zardushtiylikning tarqalishi va uning asosiy matnlari, jumladan, Avesto kitobi, xorijiy tillarning diniy-

falsafiy va madaniy o'zaro ta'sir vositasi sifatida ahamiyatini oshirdi. Bu davrda xorijiy tillar faqat aloqalarning vositasi bo'lib qolmasdan, mahalliy til va madaniyatlarning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Ammo Sovet davrida xorijiy tillarni o'qitish asosan rus tili orqali amalga oshirilgani mahalliy tillarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan[7]. Shunday bo'lsa-da, bu davrda xorijiy tillarni o'qitish sohasida milliy kadrlar tayyorlashning dastlabki bosqichi amalga oshirildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha milliy siyosat shakllana boshladi. 2012-yilda qabul qilingan Prezident farmoni asosida xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar bo'yicha maktab va oliy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'rganish kengaytirildi va xalqaro standartlarga moslashtirildi[8].

Hozirgi kunda O'zbekistonda xalqaro imtihonlar (IELTS, TOEFL, CEFR) uchun tayyorlov markazlari faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, xorijiy tillarni bilish davlat xizmatchilarining malakasini oshirishda muhim talabga aylandi. Globallashuv jarayoni xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni talab qilmoqda. Onlayn ta'lim platformalari, masalan, Duolingo, Coursera va Zoom orqali xorijiy tillarni masofaviy o'rgatish tizimi shakllandi. Bu jarayon xorijiy tillarni o'rganishni yanada qulay va samarali qildi. Shuningdek, davlat miqyosida amalga oshirilgan "Milliy ta'lim dasturi" loyihasi xorijiy tillarni o'rganish uchun yangi metodikalarni joriy etdi. Ushbu dastur chet tillarni bolalikdan o'rganishni rag'batlantirishni maqsad qilgan bo'lib, o'quvchilarning amaliy til ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 1922-1923 o'quv yilida Turkiston Sharqshunoslik institutida 210 nafar talaba o'qigan, 5 nafar professor, 11 nafar o'qituvchi ta'lim va tarbiya ishlari olib borishgan[9]. 1922 yilga kelib, institut kutubxonasida 5300 jild kitob va 200 dan ortiq qo'lyozma asarlar bor edi. Mazkur institut 1924-yilda alohida fakultet sifatida O'rta Osiyo davlat universitetiga qo'shib yuborilgan, biroq uning faoliyati uzoq davom etmadi. 1930-yilga kelib fakultet pedagogika fakultetiga aylantirildi. 1931-yilda esa agrosanoat institutiga aylantirilib, Dushanbe shahriga ko'chiriladi. Shunday qilib, sharqshunoslik fakulteti faoliyati tugaydi. O'sha davr tuzumi

tufayli o'zbek sharqshunoslik faniga rahna tushadi[9]. Maktablarda asosan ingliz, nemis, fransuz tillarini o'qitilgan bo'lsa, poytaxt va ayrim viloyat markazlari hamda yirik shaharlarda sharq tillariga ixtisoslashtirilganlari ham mavjud edi. 1926-1929-yillarda milliy ziyolilarning ko'plab vakillariga qarshi ta'qiblar kuchaydi. Ulardan Munavvar qori Abdurashidxonov hukumat tomonidan vaqti-vaqti bilan ish va yashash vositalaridan mahrum qilingan. Abdurauf Fitrat ham xuddi shunday taqdirga duch kelgan. 1931-yilga kelib, sharqshunoslarga bo'lgan salbiy munosabatlar davom ettirildi. O'rta Osiyo Davlat universiteti Sharq fakultetida dars beradigan, taniqli olimlardan 11 tasi hibsga olindi. Sharmandali sharqshunoslar orasida asosiy "jinoyatchi" 14 ta chet tilini mukammal biladigan arabshunos olim A.Shmid ham bor edi. Hibsga olingan boshqa professor o'qituvchilar ham xuddi shunday g'ayrioddiy shaxslar edi. N.Filatov O'rta Osiyo davlat universiteti Sharq fakulteti o'qituvchisi bo'lib, sharqshunoslikning siyosiyashishiga, fanda yagona haqiqiy marksistik metodologiyani o'rnatishga qarshi kurashda faol ishtirok etdi. Hibsga olinganlar Sharq fakultetida go'yoki, aksilinqilobiy sabotaj guruhini tuzish va sovet mutaxassislarini tayyorlash sohasidagi ishlarni buzish, ijtimoiy-siyosiy intizom va markschalenincha metodologiyaga qarshi turishda ayblanib, qatag'on qilindilar.

Xulosa. Bu davrda yaratilgan dasturlarda chet tili o'qitishga amaliy maqsad asos qilib olindi. Talabalar chet tilida o'qishni, gapirishni o'rganishlari lozim edi. Yangi darsliklar yaratildi, lekin bu darsliklar kamchiliklardan xoli emasdi. Bu davrda tilshunos olim G.Palmer tadqiqoti o'z ta'sirini ko'rsatdi. I.Gruzinskayaning til o'rgatishga bag'ishlangan muhim kitobi bosmadan chiqdi. Pedagogika fanlari akademiyasining chet tili bo'limi I.Raxmanov boshchiligidagi til materiallarini ilmiy asosda tanlashda ancha ishlarni qildi. Yaratilgan dasturda qoidalarini yodlash, tahlil qilaolish ko'zda tutilgandi. O'quvchilar malaka-ko'nikmalari faqat tarjima orqali hosil qilinadi, og'zaki nutqqa oz vaqt qolardi. Bir jihatga alohida e'tibor qaratish lozimki, bu davrlarda chet tillari faqat rus tili orqaligina o'rganilgan. Bu hali rus tilini yaxshi o'rgana olmagan o'quvchilar uchun muayyan qiyinchilik tug'dirardi natijada, o'quvchilarning bilimlari past bo'lib, eng oddiy fikrlarni ham bayon qila olmasdilar.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Buyuk kelajakka ishonch. Toshkent, 1995. – 34-bet.
2. Islomov U. Movarounnahrda madaniy integratsiya. Toshkent, 2003. – 22-bet.
3. Rustamov B. Xorijiy tillar va madaniyat. Toshkent, 2010. – 49-bet.
4. Qodirov Z. O'rta asrlar tarjimonlari. Toshkent, 2012. – 34-bet.
5. Nuriddinov S. Fors tilining O'zbekistondagi o'rni. Toshkent, 2015. – 56-bet.
6. G'afurov T. Xorijiy tillarning ahamiyati. Toshkent, 2011. – 19-bet.
7. Rasulov S. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 19-bet.
8. Abduqodirov U. Chet tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 31-bet.
9. Абдусаматов М. Ўзбекистон шарқшунослари. Библиографик очерк. Тошкент:Қомуслар Бош тахририяти, 1996. –7-bet.